

TILSHUNOSLIKDA MUALLIFLIK KATEGORIYASINING O'RGANILGANLIGI

Z.Yigitaliyeva

FDU, f.f.f.d.

Annotatsiya

Maqolada modusning kvalifikativ kategoriyalaridan biri bo'lgan Mualliflik haqida so'z boradi. Mualliflik kategorisining mazmun-mohiyati va tipologiyasi yoritiladi.

Kalit so'zlar:Mualliflik , modus, kategoriya, baho

Аннотация

В статье говорится об авторстве, которое является одной из качественных категорий моды. Будет объяснена сущность и типология категории авторства.

Ключевые слова:авторство, модус, категория, оценка

Abstract:

The article talks about authorship, which is one of the quality categories of fashion. The essence and typology of the category of authorship will be explained.

Keywords: authorship, mode, category, assessment

Modusning kvalifikativ kategoriyalari so'zlovchining nafaqat voqea-hodisalar va ular haqidagi axborotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi, balki axborot muallifiga ham ishora qiladi. Bunday kvalifikativ kategoriya tilshunoslikda *avtorizatsiya*, *ya'nimuelliflik*, deb nomlanadi. Tilshunoslikda Mualliflik tushunchasiga nisbatan qo'llanuvchi yagona ta'rifni mavjud emasligi, uni mazkur sohada paydo bo'lganiga ko'p bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

Mualliflik tushunchasi ilk bor G.A.Zolotovning funksional va kommunikativ sintaksis masalalariga bag'ishlangan asarlarida ko'zga tashlanadi. Olimaning fikricha, ushbu hodisaning mohiyati "obyektiv olam haqidagi ma'lumotlardan tashkil topgan jumlagacha boshqa bir strukturaviy-semantik mundarijaga ega jumlaning qo'shilishidir. Unda subyekt, idrok, bayonva baho "muallifi"ga ishora qilinadi. "Shunday qilib, Mualliflik jumla mazmunini so'zlovchi tomonidan undagi fikr-mulohaza, baho va munosabatlar sohibi, "muallifini" ko'rsatish orqali murakkablashtirishdir. G.A.Zolotovning Mualliflik tushunchasini butarqda talqin qilishi boshqa tilshunoslar tomonidan gapdagi axborotni "*mualliflashtirilgan*" yoki *subyektlashtirilgan* hamda *obyektiv* turlarga ajratishlariga turtki bo'ldi. Masalan, *Go'dak yig'layapti* va *U go'dak yig'layotganini eshitib turardi*. Birinchi jumladan farqli ikkinchi jumla yig'I ovozi idrok qilayotgan subyektga ishora qilish bilan tavsiflanadi. Yuqoridagi misoldan ko'rinadiki, jumlaning prapozitsion tuzilishi idrok qiluvchi va bajarilayotgan harakat *eshitmoq* fe'lini qo'shilishi orqali kengaytirildi, "mualliflashtirildi".

Mualliflik hodisasini mazmunga ko'ra G.A.Zolotova uch turga ajratadi. Mualliflikning birinchi turini baho, predmet va hodisalarni saralanishi, tushunchalar mazmunini yorituvchi mazmuniy struktura va malakali subyekt tashkil qiladi. Masalan, *Uning fikricha, bu kitob zerikarli. Sening tashrifing unga katta hodisadek tuyulmoqda. Uning tasavvurida, bunyodkorlikning ma'nosi – xalqqa xizmat qilishdir.*

Yuqorida keltirilgan misollarda subyektning baho, nuqtai nazari, tajriba va hodisalarni farqlay olish malakasi haqida ma'lumot berilmoqda.

2. Mualliflikning ikkinchi turiga idrok subyektiv astatik ma'nolar doirasidan iborat mazmuniy struktura xos bo'lib, unda predmet va hodisalarning sodir bo'lish joyi haqida ma'lumotning mavjudligi, harakat va holatlarning aniqligi haqida xabar beriladi. M.: — *Xonadan bolalarnin gkulgusi eshitildi*. Shuningdek, Mualliflikning ushbu turida umumiy mavhum

munosabatlarga ham ishoraqilinadi. M.: "Biz bunin gsababini asosiy Grammatik ma'noning muallif tomonidan noto'g'ri talqin qilinganida, deb bilamiz".

3. Mualliflikning uchinchi turi avvalgi ikki tur o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Bunda jumlaning mazmuni strukturasi subyektning biror bir predmet sifati haqidagi ma'lumoti tashkil qiladi. M.: *U xotinini yig'layotgan holda uchratdi.*

Shunday qilib, G.A.Zolotova tomonidan taklif qilingan hodisa tasnifi saralash, idrok qilish va ularni birlashtiruvchi idrok etib, baho berish faoliyatlariga asoslanadi.

Adabiyotlar:

1. Золотова Г. А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. М.: КомКнига, 2005.
2. Сыроватская Н.С. Авторизация: проблемы определения и научного описания на уровне предложения и текста. <https://cyberleninka.ru/article/n/avtorizatsiya-problemy-opredeleniya-i-nauchnogo-opisaniya-na-urovne-predlozheniya-i-teksta>
(Мурожаатсанаси: 31.05.2023, 08.40)
3. Йигиталиева, З. М. (2022). МОДУСНИНГ ПРОСОДИК ВОСИТАЛАР ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНИШИ. *ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 193-200.
4. Йигиталиева, З. М. (2023). МОДУС КАТЕГОРИЯЛАРИГА ОИД НАЗАРИЯЛАР ТАҲЛИЛИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 16-19.
5. Йигиталиева, З. М. (2023). НУТҚИЙ ТАЪСИР НАЗАРИЯСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ ВА МОҲИЯТИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 20-24.
6. Йигиталиева, З. (2023). СЎЗЛОВЧИ СУБЪЕКТНИНГ ИЛЛОКУТИВ АКТЛАРДАГИ ФУНКЦИЯСИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(5), 5-9.

7. Yigitalieva, Z. (2023). Aktualization Of The Modus Through Logic Stress. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 19, 58-62.
8. Йигиталиева, З. М. (2022). ТИЛДА МОДУС ИФОДАЛОВЧИ ЛЕКСИК ВОСИТАЛАР ТАҲЛИЛИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 225-231.